



JANUBIY KOREYA DAVLATINING TA'LIM TIZIMI

Yo'ldoshova Nilufar Muxiddin qizi

Annotatsiya: *Maqola Janubiy Koreya ta'limining kelib chiqishi, rivojlanishi tarixi va ikkinchi jahon urushidan keyin so'ng yuksalishi, uning rivoji yo'lida olib borilgan ishlar.*

Kalit so'zlar: *Koreya ta'lim tizimi tarixi, ta'lim tizimining rivojlanishi, koreys tili, hangvonlar(xususiy maktablar), raqamli ta'lim tizimiga o'tishi .*

Kirish

Janubiy Koreya bugungi kunda dunyoda eng ilg'or va samarali ta'lim tizimiga ega mamlakatlardan biri sifatida tanilgan. Bu davlatda ta'limga bo'lgan e'tibor nihoyatda katta bo'lib, u mamlakat taraqqiyotining eng muhim omili hisoblanadi. Ammo bu darajaga erishish uchun u uzoq va mehnatli yo'lni bosib o'tdi. So'nggi bir necha yillar ichida Koreya ta'lim tizimi chuqur islohotlarni boshdan kechirib, hukumat doimiy ravishda ta'lim sohasiga katta mablag' ajratadi ,jamiyat esa bilim va mehnatsevarlikni oliy qadriyat sifatida qadrlaydi.

Koreya ta'lim tizimi tarixi

Koreyada ta'lim tizimining ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi asrlarda koreyslar Xitoy madaniyatidan ilhomlanib, konfutsiylik ta'limoti asosida ta'lim berishgan. O'sha davrlarda o'qitish asosan aristokratlar farzandlari uchun mo'ljallangan bo'lgan.

1910–1945-yillar oralig'ida, ya'ni Yaponiya mustamlakachiligi davrida, Koreya ta'lim tizimi yapon modeli asosida shakllantirildi. Ammo bu tizim ko'proq yapon madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan edi. Shu sababli, koreys tili va tarixini o'qitish cheklangan, milliy ta'lim deyarli yo'qolish xavfiga kelgan edi. 1945-yilda Koreya ozodlikka erishgach, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari boshlandi. 1948-yilda Janubiy Koreya Respublikasi tashkil topgach, hukumat ta'limni millatning kelajagi sifatida e'lon qildi.

Bu yillarda yangi konstitutsiya qabul qilinib, unda har bir fuqaroning ta'lim olish huquqi kafolatlandi. Boshlang'ich ta'lim bepul va majburiy etib belgilandi. Shuningdek, o'quv dasturlari yangilanib, koreys tili, tarix va madaniyat qayta o'quv tizimiga kiritildi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi

1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta'lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895-yildan boshlang'ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900-yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan «Xususiy maktablar to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. 1910-yili Koreya va Yaponiya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya

Yaponiyaning rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta'lim tizimini keskin o'zgartirish yo'lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab

qo'yildi. Bu davrda 1911-yil 23-avgustda qabul qilingan «1-Choson ta'lim buyrug'i» amal qildi. Unga ko'ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta'lim siyosati olib borildi. Ya'ni, mahalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang'ich ta'lim olar, o'rta va oliy ta'lim berilmas edi. Bu yapon mustamlakachiligining uzoq o'ylangan rejalariga qatoriga kirardi. Ammo 1919-yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya hukumati biroz yon berishga majbur bo'ldi va buyruqqa o'zgartirish kiritib, boshlang'ich ta'lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922-yil 4-fervralda «2-Choson ta'lim buyrug'i» qabul qilindi. Bu buyruqqa ko'ra, ta'lim muddatlari uzaytirildi. Ya'ni, oddiy maktablarda ta'lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1924-yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi. O'sha yili Xitoy-Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi.

Hangvon tushunchasi:

“Hagvon” (학원) — bu Janubiy Koreyada faoliyat yurituvchi xususiy o'quv markazlari bo'lib, ular o'quvchilarga maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim beradi. Bu joylarda o'quvchilar matematika, ingliz tili, fizika, musiqa, san'at yoki imtihon tayyorlov kurslariga qatnaydi.

“Hagvon” (학원) — bu Janubiy Koreyada faoliyat yurituvchi xususiy o'quv markazlari bo'lib, ular o'quvchilarga maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim beradi. Bu joylarda o'quvchilar matematika, ingliz tili, fizika, musiqa, san'at yoki imtihon tayyorlov kurslariga qatnaydi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi nihoyatda raqobatbardosh. Universitetga kirish imtihonlari (CSAT — College Scholastic Ability Test) juda murakkab bo'lgani uchun o'quvchilar hagvonlarga borib tayyorlanadilar.

Imtihonlarga psixologik tayyorgarlik beradi,

Talabalarda mustaqil ishlash va tartib-intizomni kuchaytiradi.

Ko'plab ota-onalar farzandlarini kechqurun yoki hatto kechasi soat 10–11 gacha hagvonga yuboradi. Chunki ular uchun ta'lim — kelajakdagi muvaffaqiyatning kaliti.

Raqamli ta'lim tizimiga o'tishi

Janubiy Koreya hukumati 1990-yillardan boshlab ta'limda raqamli islohotlarni joriy eta boshladi. Maktablar internet tarmog'iga ulandi, kompyuter sinflari tashkil etildi, elektron darsliklar ishlab chiqildi.

Bugungi kunda esa har bir o'quvchi planshet, noutbuk yoki smartfon orqali darslarda qatnashadi. Dars materiallari maxsus onlayn platformalar orqali taqdim etiladi.

Masalan:

EBS (Educational Broadcasting System) — onlayn darslar va video ma'ruzalar platformasi.

K-MOOC — oliy ta'lim uchun mo'ljallangan bepul onlayn kurslar tizimi.

Bu platformalar orqali o'quvchilar o'zlariga qulay vaqtda, istalgan joyda o'qish imkoniyatiga ega.

Darslarni chuqurlashtirib o'rgatadi,
O'quvchilarning baholarini yaxshilaydi.

Xulosa

Janubiy Koreyaning ta'lim tizimi mehnatsevarlik, intizom va texnologik rivoj uyg'unligi asosida shakllangan. Bu tizim o'quvchilarda nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, mas'uliyat va ijodkorlikni ham shakllantiradi. Shu sababli, Janubiy Koreya bugungi kunda dunyoga o'zining bilimli, iqtidorli va yangilikka intiluvchi yosh avlodini taqdim etmoqda. Bu tizim ko'plab davlatlar uchun o'rnak bo'la oladigan mukammal ta'lim modeli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korea Ministry of Education (MOE). "Education in Korea: Overview and Policy." — Seoul, 2023.
2. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). "Education Policy Outlook: Korea." — Paris, OECD Publishing, 2022.
3. UNESCO Institute for Statistics. "ICT in Education: Republic of Korea." — UNESCO, 2021.
4. EBS (Educational Broadcasting System). <https://www.ebs.co.kr>1. Korea Ministry of Education (MOE).
5. "Education in Korea: Overview and Policy." — Seoul, 2023.